

INNOVATION DARS REJALARI (SIOP, UBD, UDL, 5E) ASOSIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISH JARAYONINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Xasanova Dilbar Karimdjano

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada dinshunoslik yo'nalishida talabalarning kasbiy sifatlarini rivojlantirishda innovativ pedagogik metodlar va dars reja modellarining ahamiyati yoritilgan. Raqamli platformalar, onlayn korpuslar, global muloqot vositalari, autentik materiallar, raqamli o'yinlar va mobil ilovalardan foydalanish orqali o'quv jarayonida talabalar kreativligi, tahlil qilish qobiliyati, tanqidiy fikr yuritish, hamkorlikda ishlash hamda lingvistik kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. SIOP, UbD, UDL va 5E kabi zamonaviy dars reja modellarining o'quv jarayonidagi o'rni, ular asosida talabalarda o'z-o'zini tahrirlash, tahlil qilish, axborotni qayta ishlash, muloqotga kirishish va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, multimedia vositalari, sahna ko'rinishlari, loyihaviy ta'lim, Suqrot seminarlari, hamkorlikda o'rganish, yozma topshiriqlar va mehmon spikerlar ishtirokida o'quv faoliyatini tashkil etishning samaradorligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari innovativ metodlar orqali bo'lajak dinshunoslarning analitik, ijodiy va lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishning yuqori samaradorlikka ega ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar

Innovativ metodlar, raqamli platformalar, SIOP, UbD, UDL, 5E modeli, kompetensiyaviy yondashuv, dinshunoslik ta'limi, tanqidiy fikrlash, lingvistik kompetensiya, digital learning, hamkorlikda o'rganish, loyihaviy ta'lim, autentik materiallar.

Аннотация

В данной статье рассматривается роль инновационных педагогических методов и моделей планирования занятий в развитии профессиональных качеств студентов религиозоведческих направлений. Использование цифровых платформ, онлайн-корпусов, глобальных коммуникативных сервисов, аутентичных материалов, цифровых игр и мобильных приложений способствует развитию креативности, аналитического мышления, критической рефлексии, навыков сотрудничества и лингвистической компетентности обучающихся. Раскрывается значимость таких моделей, как SIOP, UbD, UDL и 5E, которые обеспечивают формирование у студентов навыков самооценки, анализа, переработки информации, ведения дискуссий и развития профессиональных компетенций. Кроме того, обоснована эффективность применения мультимедийных ресурсов, ролевых сцен, проектного обучения, семинаров Сократа, совместного обучения, письменных заданий и приглашённых экспертов в образовательном процессе. Результаты исследования показывают высокую эффективность инновационных методов в развитии аналитических, творческих и лингвистических компетенций будущих религиоведов.

Ключевые слова:

инновационные методы, цифровые платформы, модель SIOP, UbD, UDL, модель 5E, компетентностный подход, религиозоведческое образование, критическое мышление, лингвистическая компетентность, цифровое обучение, совместное обучение, проектное обучение, аутентичные материалы.

Abstract

This article explores the role of innovative teaching methods and lesson design models in developing professional qualities among students in Religious Studies. The use of digital platforms, online corpora, global communication tools, authentic materials, digital games, and mobile applications enhances learners' creativity, analytical thinking, critical reflection, collaboration skills, and linguistic competence. The significance of modern instructional models such as SIOP, UbD, UDL, and the 5E model is highlighted, demonstrating how they foster students' abilities in self-editing, analysis, information processing, discussion, and the development of essential professional competencies. The effectiveness of multimedia resources, role-play scenarios, project-based learning, Socratic seminars, collaborative learning, written assignments, and guest speakers in classroom instruction is also substantiated. The findings indicate that innovative methods significantly

contribute to the development of analytical, creative, and linguistic competencies in future religious studies specialists.

Keywords:

innovative methods, digital platforms, SIOP, UbD, UDL, 5E model, competency-based approach, Religious Studies education, critical thinking, linguistic competence, digital learning, collaborative learning, project-based learning, authentic materials.

Innovativ metodlar yordamida tuziladigan bir nechta samarali dars reja modellari mavjud bo'lib, ulardan SIOP(Sheltered Instruction Observation Protocol), UbD (Understanding by Design), UDL (Universal Design for Learning) 5E Instructional Model kabi namunalarni taklif etamiz. Yuqorida sanab o'tilgan dars rejalarining afzallik jihati shundan iboratki, ushbu modellar asosida ishlab chiqilgan rejalarni amalda qo'llash orqali talabalarining kreativlik, tahlil qilish va tasdiqlash qobiliyatlari, jamoatchilik, g'ayratlilik, sinchkovlik, amaliy ishlarni tashkil etish va boshqalar kabi kasbiy sifatlarni rivojlantirish mumkin. **SIOP**(Sheltered Instruction Observation Protocol) "Til o'rganish jarayoni davomida integratsiyalashgan muhokama" modeli ta'lim oluvchilarini o'zlashtirish, ko'nikma va tahlil qilish, maslahatlar, tajribalar va zamonaviy axborotlar bilan ishlash, o'zlashtirishni amalga oshirish, munozaralar va takrorlash yordamida kasbiy sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. **UbD** (Understanding by Design) "reja-dizayn orqali tushunish" modeli talabalarni kichik g'oyalar bilan o'zlashtirishni ta'minlaydi, bu esa talabalarning tahlil qilish, fikrlash, yechim topish va tasdiqlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. **UDL** (Universal Design for Learning) "O'rganish uchun universal dizayn" model til bilish darajasi turli xil bo'lgan guruhlar uchun mo'ljallangani bois, unda instruksiya talabalarga moslashtiriladi. Bu orqali talabalarning hamkasblar va jamiyatning boshqa a'zolari bilan o'zaro kelishib ishlash, muammoni hal qilishda kreativlik, topqirlik kabi sifatlarni rivojlantirishga ko'maklashadi. **5 E** ya'ni, (Engage, Explore, Explain, Elaborate, and Evaluate) "qiziqtirish, o'rganish, izohlash, tushunish, baholash" modeli talabalarni mavzuga jalb etish, kasbga doir asosiy tushunchalarni tushuntirish va ularni baholash orqali ulardagi

kasbiy sifatlarning biz taklif qilgan, uchinchi komponenti bo'lgan, lingvistik kompetentlikni shakllantirishga ko'maklashadi.

<i>Innovativ metodlar</i>	
Metod nomi:	Tasnifi
Raqamli platformalar	Edmodo, Moodle Cloud, Schoology, Google Classroom
Onlayn korporalar:	Linguee, Vocabulary Profilers, TOEIC Word Lists, New General Service List and Academic Word List
Dunyo bo'ylab onlayn platformalarda muloqot:	Skype, Zoom platformalari
Onlayn autentik materiallar	Facebook, breakingnews, Voice of America internet saytlari
Raqamli o'yinlar asosida (Digital Game-Based Learning)	Gamelab, GameQuiz, Glitch, Gametutor, Gamify
Mobil telefonlar vositasida	quizlet, pikkers, quizizz, kahoot, jeopardy

Kompetensiyaviy yondashuv asosida taklif qilingan yuqoridagi dars rejalarining umumiy jihati shundan iboratki, ularda talabalarning *tahrirlash*, lingvistik kasbiy sifati rivojlanadi. Aynan boshqa tilni o'rganish davomida o'z-o'zini tahrirlashga va tengdoshlar bilan taqqoslashga, ulardan maslahatlar so'rashga imkon berishini ta'minlaydigan mashqlar to'plami berib boriladi. *Tahlil qilish*, tadqiqotchilik kasbiy sifatlarning ikkinchi komponentiga ta'luqli bo'lib, talabalardan berilgan manbalarni analitik tahlil qilish va xulosalarni tartibga solish kabi tahlil talab qilinadi. Onlayn berilgan videolar, forumlardagi muhokamalar talabalardan *o'zlashtirish* va ma'lumotni

qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Ushbu dars rejasidagi vazifalarni amalga oshirishda bo‘lajak texnik jihatdan kompetent dinshunos kibermakonda internet tarmog‘i resurslaridan to‘g‘ri va samarali foydalana olish kompetensiyasini shakllantiradi. [6:13]

Bo‘lajak dinshunoslarning kasbiy sifatlarni rivojlantirishda yuqorida sanab o‘tilgan metodlar va dars rejalari orqali mashg‘ulot tashkil qilinganda quyidagicha imkoniyatlari aniqlandi:

1. Multimedia resurslaridan foydalanish: video, podkastlarni va talabalarni multi-sensorli o‘rganish tajribasini oshirish maqsadida onlayn resurslarni kiritib, ushbu vositalar yordamida talabalar uchun murakkab bo‘lgan tushunchalarni yaxshirok tushunishiga ko‘maklashish va o‘qish jarayonini kizikarliroq qilish. [2:45]

2. O‘quv platformasiga yuklangan saxna ko‘rinishlari: Talabalar diniy matnlar yoki tarixiy shaxslar obrazini o‘ynashi, o‘z xarakati va e‘tikodlarini mazmuni va axamiyatini yanada chukurroq anglashlariga ruxlantiradi.

3. Loyixaga asoslangan ta‘lim: loyixalarni tayyorlash talabalardan izlanishlar o‘tkazish va diniy matnlar, payg‘ambarlar, diniy marosimlar va tarixiy shaxslar [9:12] xaqidagi tushunchalarni boyitishni talab kiladi, va ularga mazmunni yanada chukurroq tushunishiga yordam beradi

4. Suqrot seminarlari. O‘quvchilarni o‘rganilayotgan bilimlar haqida tanqidiy va tahliliy o‘ylashga chaqiradigan guruh muhokamalari bilan mashg‘ul qilish. Ularni fikr yuritadigan savollar uchun rag‘batlantirish va har birlarining nuqtai-nazarlariga fikr bildirga olishga undash.

5. Hamkorlikda o‘rganish. Materiallarning ma‘nosini chuqurroq tushunish uchun guruh bo‘lib ishlashda rag‘batlantirish. Bu esa talabalarni bir-birlaridan o‘rganishga, muhim mavzular bo‘yicha suhbatlashishni rivojlantirishga va jamoa bo‘lib ishlash qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. [4:12]

6. Yozma topshiriqlari. O‘quvchilarga analiz va sintez qilishni talab qiladigan va o‘rganilayotgan kontentni o‘zida aks ettiradigan yozish uchun berilgan topshiriqlarni

tayinlash. Bu topshiriqlar yozish qobiliyatlarini sayqallash bilan bir vaqtida ularga tanqidiy o'ylash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

7. Mehmon spikerlar. Diniy soha vakillaridan o'z sohalarida fikrlarini bo'lisha oladigan va ularni o'quvchilar bilan muhokama qila oladigan mutaxassislarni darsga taklif etish. Bu o'quvchilarga materiallarning chuqurroq ma'nosini to'plashda va real vaziyat va amaliyotlarda qanday qo'llanishini ko'rishda yordam beradi.[1:78]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asrorov, I. (2025). THE ROLE OF ANTHROPOCENTRIC TEACHING IN ENHANCING STUDENT AND TEACHER MOTIVATION AT THE UNIVERSITY LEVEL. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(5), 638-643.
2. Dilbar, K. (2025, May). Technology-Driven Evaluation Methods in ESL Education. In *International Conference on MODERN EDUCATION AND INNOVATIVE APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES*" (pp. 132-135).
3. Hafizov, A. A. (2025). INTEGRATING SOCIAL MEDIA PLATFORMS INTO LANGUAGE CLASSROOMS FOR ECONOMICS STUDENTS: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES. *Educator Insights: Journal of Teaching Theory and Practice*, 1(6), 65-69.
4. Khasanova, D. (2022). Pedagogical Opportunities of Developing Professional Qualities in Religious Studies Students Based on English Language Materials. *Eurasian Research Bulletin*, 13, 98-101.
5. Khasanova, D. (2023). Enhancing english language teaching for islamic studies students: a focus on curriculum design. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(12), 190-195.
6. Khasanova, D. K. (2020). Methods of teaching foreign languages. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(11), 371-376.

7. Shirinova, F. A., & Musayeva, G. I. (2017). WHAT TEACHING STYLE IS THE BEST FOR STUDENT-CENTRIC CLASSROOM. In Современные социально-экономические процессы: проблемы, закономерности, перспективы (pp. 50-52).
8. Ulmasbayeva, Malika Alisherovna (2025). THE ROLE OF CULTURAL CONTEXT IN EFL PEDAGOGY. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 5 (4), 422-426.
9. Шамсематова, Б. Р. (2020). ПРАГМАТИЧЕСКИЙ И КОГНИТИВНЫЙ ПОДХОДЫ К ОПИСАНИЮ ДИСКУРСА. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (1), 136-138.